

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Xurramova Sanobar Maxmadmurod qizi

TerDPI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Zaripova Maftuna Zokir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ahamiyati yoritilgan. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bolalarda matematikaga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada bunday mashg‘ulotlarni tashkil etishning samarali shakl va metodlari — matematik o‘yinlar, viktorinalar, topqirlikka oid mashqlar, guruhli ishlanmalar va loyihaviy faoliyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari, amaliy masalalarni yechishdagi faolligi va ijtimoiy faolati qanday rivojlanishi haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, matematika darsi, sinfdan tashqari mashg‘ulot, metodika, didaktik o‘yinlar, ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur, matematik savodxonlik, qiziqish uyg‘otish.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida matematika fani o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar esa o‘quv dasturini boyitish, bilimlarni mustahkamlash va qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi zamonaviy ta‘limda matematika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O‘quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, ximiya va boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun boshlang‘ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma‘lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish

darajasini ko'tarishga ko'maklashishi uchun, boshlang'ich maktabda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur.

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, o'quvchilarni bilimga va mehnatga bo'lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o'zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta'sir etadi. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarni matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz. **Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi** o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

Boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog'langan bo'lib, sinf ishlarining davomi bo'ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarining ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o'zlashtirishda orqada qoladigan o'quvchilar bilan ishlash, bunga qo'shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o'rganishga qiziquvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar. Ma'lumki birinchi tur mashg'ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg'ulotlarni 3-4 o'quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko'proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. O'quvchilarda matematika va uning tadbirlariga qiziqish uyg'otish;
2. O'quvchilarning matematikadan dastur bo'yicha bilimlarini kengaytirish;
3. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash;
4. O'quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish;
5. O'quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmatini haqidagi, matematika maktabining dunyo fani orasidagi roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganidan, uning anchagina qismini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirishga to'g'ri keladi. Maktab tajribasida matematikadan kichik yoshdagi o'quvchilar bilan bajariladigan sinfdan tashqari ishlarining quyidagi turlari uchraydi:

1. Qiziqarli matematika soatlari va minutlari;
2. Matematik to‘garaklar uyushtirish;
3. Matematika gazetasi chiqarish;
4. Ekskursiya o‘tkazish;
5. Matematik burchak tashkil qilish;
6. Matematika kechalari o‘tkazish;
7. Boshlang‘ich maktablarda matematika olimpiadasi o‘tkazish.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi;
2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi;
3. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazilish shakliga ko‘ra darslardan farq qiladi va ko‘pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo‘ladi.

Og‘zaki hisob ko‘pincha sinfdagi hamma o‘quvchilarning «yana, yana» degan istaklari bilan o‘tkaziladi. O‘quvchilarning talabiga ko‘ra, darsda boshlangan ishlarning davomini darsdan tashqari vaqtga ko‘chirish mumkin. O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni oldin ularning talabiga ko‘ra, so‘ngra yechiladigan misol, masalalar, o‘yin va qiziqishning ortishiga qarab oyida ikki marta sistemali o‘tkazib turish mumkin. Chunki dasturni bajarishda bunday qiziqarli masalalarni yechish, o‘yinlarni tashkil qilish, topishmoqlar topish, tez hisoblash mashg‘ulotlarini darsda ko‘proq o‘tkazishga imkoniyat yo‘q.

Tajribalar bizni shu narsaga ishontiradiki, o‘quvchilar qiziqarli matematika soatlarida odatdagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko‘tarinki ruhda faollik bilan ishlaydilar.

Bunday mashg‘ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo‘lishi kerak. Bu masalalarda qiziqarli matematikaga doir ko‘rsatma qurollar sanash jadvallari, figuralarni sanash, plakat formasidagi o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o‘quvchilarga katta yordam beradi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishga ketadigan vaqt ularga qo'yilgan maqsadga qarab aniqlanadi. Agar o'quvchilar bilan uchrashish darsdan keyin o'tkazilsa va o'z oldiga biror o'yin bilan tanishish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, bu holda bunday mashg'ulotga dastlabki paytlarda 10-15 minut vaqt yetarli bo'ladi. O'quvchilar o'yin bilan tanishgandan keyin, odatda ular ko'pincha o'zlari ota-onalari, aka-ukalari va boshqalar bilan ham shunday o'yinni bajaradilar, ya'ni ularni ham jalb qiladilar. Mashg'ulotlar murakkablashib ketsa, uni o'tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o'quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko'rsatilgan masalalarning ko'rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo'lishi ham mumkin. Ziyraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o'rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi: Matematik to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish. Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli- tumanligi. Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar,

berilgan ma'lumotlari etishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlari ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar, tarixiy ma'lumotlar berish va boshqalar kiradi.

Maktab amaliyotida hozir quyidagilar uchraydi: matematik 10 minutliklar, soatliklar, matematika kechalari, matematika to'garak lari, ertaliklar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalar.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.
2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.
3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimligining murakkabligidadir.

Pedagogik yondashuvlar

Mashg'ulotlarda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- O'yinli metodlar ;
- Muammoli vaziyat yaratish ;
- Interfaol uslublar (klaster, aqliy hujum, "fikrlar savatchasi" va h.k.)
- Kichik guruhlarda ishlash ;

Ushbu metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, guruhda ishlashga, mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini aniqlash uchun o'quvchilarning ishtirok faolligi, berilgan topshiriqlarning bajarilish sifati, mantiqiy fikrlash darajasi baholanadi. Bu jarayonda quyidagi vositalardan foydalaniladi: So'rovnomalar , o'yin natijalari tahlili, diagnostik testlar va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas va muhim qismi

hisoblanadi. Ushbu faoliyat shakli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ularning darsdan tashqari vaqtdagi mazmunli mashg'ulotlar orqali o'zini namoyon etishiga, shuningdek matematik tafakkurni shakllantirishga keng imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida faqat darsda beriladigan bilimlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil izlanish salohiyatini to'liq rivojlantira olmaydi. Shu sababli sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga noan'anaviy, o'yin asosidagi, qiziqarli topshiriqlar berilishi, ularning shaxsiy qiziqishlariga mos yondashuvlar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinfda matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quvchilarda matematik tafakkurni shakllantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, fanlarga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchini nafaqat bilim olishga, balki fikrlashga, izlanishga, jamoada ishlashga va ijodiy yondashuvga o'rgatadi. Pedagog o'zining metodik mahoratini namoyon qilgan holda, bunday mashg'ulotlarni bolalar yoshiga mos, qiziqarli va samarali tarzda olib borishi zarur.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchilarda fanlarga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqish ortadi;
- Darsda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi;
- Mantiqiy fikrlash, mustaqil yechim topish va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi;
- Ijodiy yondashuv, jamoaviy ishlash, muloqot madaniyati singari ijtimoiy ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, o'qituvchining roli bunday mashg'ulotlarda ayniqsa muhimdir. U nafaqat darsdan tashqari faoliyatni tashkil etuvchi, balki bolalar hayotiga ruhiy va intellektual jihatdan ta'sir ko'rsatuvchi ishonchli yo'l boshchiga aylanadi. Metodik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, o'yinli uslublar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni hayotga tayyorlaydi. Kelajakda boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari matematik mashg'ulotlar tizimini yanada takomillashtirish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, milliy va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish — zamonaviy o'qituvchining muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Shunday qilib, sinfdan tashqari mashg'ulotlar boshlang'ich ta'limda nafaqat qo'shimcha bilim berish vositasi, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi kuchli tarbiyaviy vosita sifatida e'tirof etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo‘latova M.I. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO «Jahon - Print», 2011.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
3. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. “TDPU” 2005 yil.
4. Xodjayev, U., Shukurov, B., Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. Turaev, Z. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar: mazmuni va shakllari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
6. Sultonova, M., Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
7. Mavlonova, R., Pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.